

Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon



Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon

(?-1130)

(1102-1130)

Qoraxoniylardan bo'lgan Movarounnahr hukmdori. To'liq ismi *Muhammad ibn Sulaymon Dovud Kuchtegin ibn Tamg'achxon Ibrohim*. Barqiyoruq vassali **Sulaymonteginning** o'g'li. 1102 yil Samarqand taxtiga *Arslonxon* unvoni bilan o'tqazilgan. 12 ming mamlukdan iborat qo'shin tuzib Dashti Qipchoqqa bir necha bor harbiy yurishlar qilgan. Umrining oxirida falaj bo'lib qolgani tufayli taxtni o'g'illari – dastlab **Nasr**, so'ng **Ahmad** bilan boshqargan.

Samarqand saljuqiylar tomonidan egallangach (1130 yil 13-mart), Arslonxon Balxga jo'natilgan va o'sha yerda ko'p o'tmay vafot etgan. U Marvdagi o'zi qurdirgan madrasaga dafn etilgan. Arslonxon davrida madaniy hayot birmuncha rivojlangan. Buxoro va uning viloyatida ko'plab binolar qurilgan. Masalan, *Jarqo'rg'on minorasi* va *Masjidi kalon* yonidagi minora hozirgacha saqlangan.

2023-10-29 21:08:33